
PENSIYANING ENG KAM MIQDORLARI MINIMAL ISTE'MOL XARAJATLARI MIQDORIGA YETKAZILDI



Pensiyaning eng kam miqdorlari minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga yetkazildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" 2024 yil 30 aprel kuni PF-69-son Farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, 2024 yilning 1 maydan boshlab minimal iste'mol xarajatlari 648 ming so'm miqdorda belgilanganligi sababli quyidagi pensiyalarning miqdori oshirildi:

ish staji to'liqsiz chog'dagi yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori – oyiga 648 ming so'm;

boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oluvchi bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun pensiyaning eng kam miqdori – oyiga 648 ming so'm etib belgilandi.

Buning natijasida 751 ming nafar yoshga doir va 110 ming nafar boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini oluvchi fuqarolarning pensiyalari minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga yetkaziladi.

Pensiyalarni oshirish uchun Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan 180 mlrd.so'm qo'shimcha mablag'lar ajratiladi.

Ma'lumot uchun: yuqoridagi miqdorda pensiya oluvchilarga pensiyalar joriy yilning may oyidan yangi miqdorda to'lanadi.

Rahmatjon Devonayev - Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi So'x tumani bo'limi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-05-02 17:01:20